

	F.J.Murodova. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: B. Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori, professor; Q.A.Mo'ydinov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI III
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60111400- O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
HO'AT304	2025-2026	5	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Hozirgi o'zbek adabiy tili III	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni hozirgi o'zbek adabiy tilining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, adabiy tilning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga hozirgi o'zbek adabiy tili fanining ahamiyati, o'zbek tili fonetikasi, fonologiyasi, grafika, orfoepiografiyasi va orfoepiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi va ustulbiyatining nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiy tilning shevalarga munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiy tilining asoslari va og'zaki adabiy tilning yozma adabiy nutq me'yorlariga munosabati kabilarni bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Sintaksis haqida ma'lumot. Sintaksis va uning turlari Tildagi barcha- fonetik, leksik, morfologik hodisalarning ahamiyati. Leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki. Har qanday sintaktik hodisada so'z va morfologik ko'rsatkichning ahamiyati. Formal va substansial sintaksisning differensial jihatlari 2-mavzu. So'z birikmasi. So'z birikmasining boshqa til birliklariga munosabati So'z birikmasi, lug'aviy va sintaktik valentlik tushunchasi va nazariyasi, so'z		

birikmasining so'z, qo'shma so'z va gapdan farqi

3-mavzu. Gap qurilishi haqidagi sintaktik nazariyalar. Gap va uning turlari

Gapning qurilish qoliplari, ohangning roli, fikriy va sintaktik tugallik tushunchasi. Gapning shakllanishida morfologik, leksik, intonatsion omillar ishtiroki. Dunyo tilshunoslarining qarashlari.

4-mavzu. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklarning ifodalanishi. Ega va kesimning o'zaro munosabati

Grammatik shakllangan gapning minimal va maksimal lisoniy qolipi (WPm), gap bo'laklari Pm ning ma'nosi bilan bog'liq jihatlar, bu boradagi qarashlar tahlili va ahamiyati. Mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari.

5-mavzu. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari

Gap qurilishida muhim bo'lgan ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklarning sintaktik aloqaga kirishishi va gapdagi ahamiyati, tasnifi va turlari.

6-mavzu. Gapning uyushiq va ajratilgan bo'laklari

Uyushgan barcha so'z gap strukturasi bitta a'zo sifatida o'rin olishi, gapning murakkablashish jarayonlari, uyushayotgan bo'lakning boshqa bo'laklar bilan aloqasi masalalarining yoritilishi.

7-mavzu. Qo'shma gaplar. Qo'shma gap turlari

Qo'shma gapning strukturasi, qismlari, tarkibi, bog'lovchi vositalari. Kommunikativlik xususiyati, grammatik shakllanishining ahamiyati, mazmuniy bog'liqligi. Funktsional va substansial tilshunoslikdagi qarashlar tahlili.

8-mavzu. Bog'langan qo'shma gaplar.

Bir komponentli va ikki komponentli qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalar. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro aloqasi va ifodalanish mazmunining ahamiyati va turi.

9-mavzu. Ergashgan qo'shma gaplar.

Ergashgan qo'shma gaplar haqidagi turli qarashlar tahlili va tasnifi. Ergashgan qo'shma gap qismlari: hokim va tobe qismning o'zaro aloqasi. Ergashgan qo'shma gapning turlari haqida to'liq nazariy va amaliy bilimlarni hosil qilish.

10-mavzu. Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar: nisbiy so'zlar, yuklamalar, bog'lovchilar, bog'lovchi vositasidagi so'z va grammatik shakllarning ergashgan qo'shma gap hosil qilinishidagi ishtiroki va ahamiyati	11-mavzu. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar Bog'lovchisiz qo'shma gapdagi, intonatsiya, ohang va mazmun aloqadorligi. Qo'shma gapning boshqa turlaridan farqli jihatlar. Mazmun mutanosibligi.	12-mavzu. Murakkab qo'shma gaplar Qo'shma gapning funktsionalligi va murakkablashuv jarayoni. Murakkab qo'shma gapning tasniflanishi, turlari, mazmun aloqadorligi, shakl birligining ahamiyati.	13-mavzu O'zga gapli qurilmalar Qo'shma gaplarning bir turi bo'lgan o'zga gap va uning qismlari, qismlari o'rtasidagi mazmuniy va lisoniy bog'liqlik. O'zganing nutqini nutq momentiga bevosita va bilvosita olib kirilishi, tinish belgilarining, ohangning ahamiyati.	14-mavzu. Uslubiyat Til sathida va nutqda stilistikaning muhim jihatlar. Rasmiy, ilmiy, badiiy, publisistik, so'zlashuv uslublari va ularning gapdagi ahamiyati.	15-mavzu. Punktatsiya Lisoniy sathda va nutqda ohangning ahamiyati. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinish belgilarining vazifasi, turi, ahamiyati va qo'llanish uslublari va o'rinlari. Ohangning yozuvda ifodalanish shakli.	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Sintaktik munosabat va aloqa turlari 2. So'z birliklari tasnifi. Tobe aloqa usullari: moslashuv, boshqaruv va bitishuv. Mashq va topshiriqlar bajarish 3. Gapning turlari yuzasidan klaster metodi asosida topshiriqlar bajarish 4. Gapning bosh bo'laklari. Ega va kesimning gapdagi vazifasi. Mashq va topshiriqlar bajarish 5. Ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi vazifasi 6. Undalma, kiritmali qurilmalar, ajratilgan izoh va uyushiq bo'laklarning gapdagi
---	---	--	---	--	---	--

ahamiyati	7. Sodda gap va uning tasniflanishi. Sodda va qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar tahlili 8. Qo'shma gap va uning turlari. Mashq va topshiriqlar bajarish 9. Ergashgan qo'shma gaplar mavzusiga doir mashqlar tahlili 10. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi 11. Murakkab qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar. 12. Murakkab qo'shma gaplar yuzasidan topshiriqlar bajarish 13. O'zga gapli qurilmalar yuzasidan topshiriqlar bajarish. Qo'shma gap tahlili 14. Gapda tinish belgilarining o'rni 15. Gapda nutq uslublarning qo'llanilishi	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyiha uchun maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdilotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.	Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. So'z birligini haqidagi nazariy qarashlar tahlili. 2. Gapning grammatik belgilari 3. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari. 4. Gap bo'laklari. 5. Gapning bosh bo'laklari 6. Kesim va uning ifodalanishi 7. Egali va egasiz gaplar 8. Ikkinchi darajali bo'laklar. 9. To'ldiruvchi va uning turlari 10. To'liq va to'liqsiz gaplar haqidagi nazariy qarashlar 11. Mustaqil va nomustaqil bo'laklar 12. Gap bo'laklarining tartibini aniqlash 13. Undalma va kiritmali qurilmalar haqidagi nazariy qarashlar 14. Qo'shma gaplar tasnifi
------------------	---	--	---

	15. Bog'langan qo'shma gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi 16. Ergashgan qo'shma gaplar. 17. Qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vositalar 18. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar 19. Murakkab qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar 20. O'zga gapli qurilmalar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: – Hozirgi o'zbek adabiy tili fani bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish, tilshunoslik fanining maqsad va vazifalari bo'yicha <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> – Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan tilshunoslik fanining bo'limlari va ularning o'rganish obyektlari haqida <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> – Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi, gap sintaksisi va gapning barcha turlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi; – Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan olgan bilimlarini amalda qo'llay bilish va tilshunoslikka oid nazariy muammolarga yechimlar topa olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar:

	1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 391 b. 2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004. 3. Tursunov U.M., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to'ldirilgan 3- nashri. – T.: "O'zbekiston", 1992. 4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – T.: "O'qituvchi", 1995. 5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 359 b. Qo'shimcha adabiyotlar 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", 2017-yil, 8-feval). 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida ("Xalq so'zi" 2017-yil, 21-aprel) 3. Hojiyev Azim. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. 4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 3 nashri, "O'zbekiston", T.: 1992. 4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O'qituvchi", T., 1995. 6. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. "O'qituvchi", T.: 1999. 7. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva N., Mengliyev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'zMU, T.: 2004. 8. Mirtojiev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild. O'zMU. - T., 2004. 9. Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixov'jayeveva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 233 b. Axborot manbalari www.bimr.uz www.ziynet.uz www.cspi.uz www.pedagog.uz library.academy.uz qr.natlib.uz
7.	Chirechiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" 08. 1-soni" dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: